

BOLADA MUSIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH

Baratova Risolat Yusuf qizi

Navoiy viloyat Uchquduq tuman 1-sonli DMTT Musiqa rahbari

Nurova Navbahor Xolovna

Navoiy viloyat Uchquduq tuman 1-sonli DMTT Musiqa rahbari

Davletova Gulsina Abdaliyevna

Navoiy viloyat Uchquduq tuman 15-sonli DMTT Tarbiyachisi

Tursunova Nafisa Ne`matovna

Navoiy viloyat Uchquduq tuman 15-sonli DMTT Tarbiyachisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Bolada musiqiy tafakkurni rivojlantirish haqida keng va mazmunli fikrlar yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: O'yinlar, rolli o'yin, psixologiya, ob'ekt, sub'ekt, xotira.

Bog'cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o'sishi o'ziga xos xususiyatga ega. Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog'cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko'payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o'sgan bo'lishi, uchinchidan esa bog'cha yoshidagi bolalarning juda ko'p erkin mustaqil xarakterlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda xar soxaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Psixologik ta'lim bo'lajak mutaxassisga musiqa san'atining psixologiyaning nozik jihatlari va musiqa pedagogikasi borasida bilim olishga yordam beradi. Bo'lajak bastakor, ijrochi, musiqashunos, pedagog insonning ichki kechinmalari, uning o'y va intilishlari, tahliliy hisob-kitob va tasavvurlar parvozi, musiqiy asar ustida ishlash va uning konsertdagi ijrosi, iroda va xotira, xarakter va qobiliyat, shuningdek, musiqachi va tinglovchi shaxsiyatining boshqa psixologik sifatlarini yaxshi bilishi va etarlicha aniq tasavvur eta olishi kerak.

Musiqa psixologiyasi – psixologiyaning shunday sohasiki, u musiqaviy eshitish qobiliyati, eshitish sezgisining chegaralari, musiqaning lad, ritmikasini his qilish, sozni taktil (paypaslab) sezish, musiqaning anglanishi, yodda saqlanishi, ijro etilishi va undan bahramand bo'lish kabi masalani qamrab oladi. Musiqiy iste'dod va zakovat o'zining cheksiz imkoniyatlari, mo'jizaviy tabiati bilan bizni hayratga soladi va maftun etadi.

O'rta asrlardayoq sharqning buyuk mutaffakkirlari musiqiy psixologiya, musiqaning qalbgaga, kayfiyatga va inson organizmiga ta'siri masalalarini o'rganishgan: Forobiyning «Musiqa haqida katta kitob»i va boshqa asarlari, Ibn Sinoning «Kitob ash-

shifo», «Kitob an-najot», «Donishnoma» kabi asarlarining musiqa haqidagi boʻlimlari, Abdurahmon Jomiyning «Risoi musiqa» kitobi shular qatorida turadi. Musiqa psixologiyasi haqidagi yanada qadimiyroq taʼlimotlar Qadimgi Misr, Hindiston, Xitoy olimlari, zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto»da bayon etilgan. Pifagorning *evritmiya*, Arastuning *mimesis* taʼlimotlari shular jumlasidan. Ular musiqa inson ongi, shaxsiga, umuman, jamiyat rivojiga ulkan taʼsirini taʼkidlab oʻtishgan. Masalan, Aflotun «davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligigiga toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq», – degan.

Buyuk musiqachilar – Motsart, Betxoven, Shopen, List, Chaykovskiy, Rimskiy-Korsakov, Raxmaninov, Skryabin, Toskanini, Churlyonis, oʻzbek musiqa ijrochilari, bastakor va kompozitorlari – Yunus Rajabiy, Mutal Burxonov, Mirsodiq Tojiev va boshqalar hayotidagi misollar musiqa yaratish, ijro etish va tinglash jarayonida inson qanday psixologik xususiyatlarga, hayratlanarli imkoniyatlarga egaligini yaqqol koʻrsatadi. Mana, ayrim misollar: Yunus Rajabiy oʻzining koʻp jildlik «Oʻzbek xalq musiqasi», «Shashmaqom» toʻplamlaridagi deyarli barcha qoʻshiq va kuylarni yoddan yozgan. Mirsodiq Tojiev ajoyib simfoniyachi kompozitor boʻlgan, shu bilan bir qatorda u xalq kuylari va mumtoz musiqani puxta oʻzlashtirgan edi. U juda koʻp maqom yoʻllarini yoddan bilgan. hatto kekxa xonandalar ham unga biror maqomni aytib berishini iltimos qilib murojaat qilar va keyinchalik ularni oʻz konsert dasturlariga kiritishar edi.

Buyuk qomusiy olim, musiqa cholgʻularini mohirlik bilan chalgan Abu Nasr Forobiy oʻz ijrosi bilan kishilarni quvontirish yoki qaygʻuga solish, ovutish yoki chuqur oʻy surishga majbur qilish, xursand qilish, hayratga solish va hatto uxlatib qoʻyishning uddasidan chiqqan haqidagi hikoyat va rivoyatlar bizgacha etib kelgan. Bu nima? Ijrochining mahoratimi? Shaxsiyat xususiyatlarining taʼsirimi? Musiqa inson ongiga taʼsirimi? Professional musiqachi, mutaxassis musiqa psixologiyasidagi bu va boshqa jihatlarni etarli darajada oʻzlashtirib olishi kerak. Bu musiqiy tovushlar, obrazlar, tafakkur va hissiyotlar dunyosi kishi ruhini koʻtaradi, uni borliq bilan birlashtiradi, gohida tasavvurlar, xayollarning tushuntirib boʻlmas imkoniyatlarini ochadi, dunyoning cheksiz kengliklariga olib ketadi, haqiqatga, idealga yaqinlashtiradi, hayotimizni maʼnoli, mazmunli, maʼnaviy boy va goʻzal qiladi. Musiqa psixologiyasi fanini oʻzlashtirishni umumiy psixologiyadagi atama va tushunchalarni bilib olishdan boshlash maqsadga muvofiq. Mazkur tayanch bilimlar tarmoq soha hisoblanadigan va ayni paytda mustaqil fan – musiqa psixologiyasini oʻrganishda boshlangʻich nuqta va ishonchli poydevor boʻlib xizmat qiladi. Oʻquv qoʻllanmaning har bir boʻlimi va katta mavzularini koʻrib chiqqach, ularni mustahkam va chuqur oʻzlashtirish uchun seminar mashgʻulotlari oʻtkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Musiqa psixologiyasi tarixidan: Musiqa psixologiyasi juda qadim davrlardan buyon o'rganib kelinmoqda. Musiqa psixologiyasi bo'yicha ilk izlanishlar kurtaklarini antik davr faylasuflari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Darhaqiqat, Pifagor (er. avv. VI asr) asarlarida, uning *evritmiya* ta'limotida shu haqda gap boradi. Evritmiya deganda olim insonning barcha hayotiy hodisalardan munosib ritm, usul topa olish qobiliyatini tushungan. Ijtimoiy hayotni ladga, orkestrga qiyoslash Pifagordan qolgan. Bu orkestrda har bir ijrochi ma'lum bir cholg'uni chalganidek, hayotda har bir insonning o'z vazifasi bor. Pifagor kuy va ritm inson qalbiga muayyan ta'sir ko'rsatishini ham aniqlagan. Umidsizlik, ruhiy iztiroblar, asabiylashish, g'azab va boshqa noxushliklarga qarshi musiqa farq qilingan.

Boshqa bir Yunon faylasufi Platonning (er. avv. V asr) fikricha, davlatning kuch-qudrati unda qanday musiqqa, qaysi ohang va qay ritmda yangrayotganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Platon va uning izdoshlari davlat uchun insonni Yuksaklikka ko'tarishga yordam beruvchi musiqqa kerak deb hisoblaganlar.

Aristotel' (er. avv. IV asr) ham musiqani individning ijtimoiy hayot bilan uyg'unlashish vositasi deb hisoblagan. Aristotel' insonning ichki olami va unga san'at yordamida ta'sir o'tkazish usullarini ochib bergan *mimesis* ta'limotini ishlab chiqdi. Mimesis nazariyasida «*katarsis*» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra, qadim Yunon tragediyalari tomoshabin ko'nglini xastalik jazavalaridan tozalagan. Chuqur kechinmalar jarayonida inson ruhan poklanadi, uning qalbi o'zining xususiyligi, yagonaligidan umumiylikka ko'tariladi.

Aristotel psixikani o'zgartiradigan musiqiy lادلarni batafsil tasvirlab bergan. Bir laddagi musiqqa kishini rahmdil va muloyim qilib qo'yadi, boshqa biri esa asabiylashish yoki hayajonlanishga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, doriy, frigiya, lidiya lادلaridagi musiqqa kishining ruhi va sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatgan, boshqa lادلarda yozilgan musiqani esa yosh avlod qulog'iga yetkazmaslik tavsiya etilgan. Shunday tavsiyalar musiqqa cholg'ulari bo'yicha ham ishlab chiqilgan.

Qadimgi Yunonlar savodsiz odamni «*axareutos*» deyishgan, bu kuylash, raqs tushish, cholg'u chalishni, demakki, «*xorey*»da ishtirok etishga yaroqsiz bo'lgan odamni anglatgan. Qadimgi Yunoniston shahridagi aholini yaxlit birlashtiruvchi musiqiy-xoreografik harakat «*xorey*» deb nomlangan. Demokrit, Platon kabi antik davr mualliflarining ko'pchiligi musiqaning inson ruhiy holatiga ta'sir qilishi haqida ko'plab dalillar keltirgan: Odisseya haqidagi eposda musiqqa ta'sirida qontalash yaraning bitib ketishi tasvirlangan, hayotda juda qaharli bo'lgan Sparta hukmdori Likurg o'z qo'shinlari uchun musiqqa yaratgan.

Qadimgi Xitoyda musiqqa tartib va sivilizasiya ramzi hisoblangan, u tarbiyaning eng muhim vositasi hisoblangan va o'rganilishi shart bo'lgan fanlar qatoriga kiritilgan. Musiqqa psixologiyasi yo'nalishlari va tarmoqlari B.V.Asaf'evning «kompozitor-ijrochi-tinglovchi» fikriga tayanib, musiqqa psixologiyasini quyidagi asosiy yo'nalish

va jabhalarga ajratish mumkin: ijodkorlik, ijrochilik, musiqiy idrok. Shu tartibda keyingi yo'nalishlarga taqsimlab chiqish mumkin: ta'lim, musiqashunoslik, ma'rifiy, texnik, funksional, psixoterapevtik.

Musiqiy ijod psixologiyasi. Bu, asosan, bastakor va kompozitorlarning xayol, tasavvur, musiqa yaratish, yangi musiqiy asarni dunyoga keltirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatidir.

Musiqiy idrok psixologiyasi. Musiqani tinglab idrok etishni ham xuddi musiqa yozish va ijro etish kabi musiqa san'atidagi asosiy faoliyat turi deb hisoblash lozim. Qolaversa, tinglovchisiz musiqa san'ati o'z ma'nosini yo'qotadi va yashashdan to'xtaydi. Musiqa tinglash va uni idrok etish musiqa faoliyatining shunday turiki, u bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi. Aytishlaricha, musiqani barcha eshitadi, biroq uni hamma ham tinglab idrok eta olmaydi.

Musiqani tinglash jarayonida idrok etish darajasi tinglovchining umumiy madaniyati va musiqiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq, unga to'g'ri proporsionaldir. Musiqiy asarning to'liq va chuqur idrok etilishi, shuningdek, kompozitor va ijrochi mahoratidan ham dalolat beradi. Ana shu tarzda, tinglash jarayoni tinglovchining tarbiyasi, individual qobiliyatlari va tayyorgarligi bilan ajralmas holat deb xulosa qilish mumkin. Musiqashunoslik, musiqa targ'iboti va musiqiy ma'rifat psixologiyasi. Musiqashunoslik va musiqiy ma'rifiy faoliyat musiqa san'atini o'rganish va targ'ib etishga yo'naltirilgan. Musiqa tarixchilari, tanqidchilari, nazariyotchilari, targ'ibotchilari, musiqa ma'rifati bilan shug'ullanuvchilar musiqa haqidagi fanlarni o'rganishadi, tahlil qilishadi, boyitishadi, rivojlantirishadi hamda klub, istirohat bog'lari, dam olish uylari, radio, televidenie, matbuot va boshqa joylarda omma o'rtasida madaniy-ma'rifiy ishlarni olib borishadi. Mustahkam poydevorga tayanadigan musiqiy ijrochilik va ijodkorlik san'atni mukammallashtiradi. Musiqiy ma'rifat esa tinglovchilar auditoriyasini san'at, jahon musiqa madaniyatining durdonalari va yutuqlari bilan tanishtiradi. Musiqa psixologiyasida musiqashunosning intellektual va fikrlash faoliyatini hamda bastakor, kompozitor, ijrochi, tinglovchi o'zaro munosabatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganishga muhim o'rin ajratiladi.

Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlanishi psixologiyasi. Bu yana bir faoliyat turi bo'lib, zamonaviy musiqa san'atini usiz tasavvur etib bo'lmaydi. Musiqa san'atining texnik ta'minoti va texnik jihozlash sohasidagi mutaxassislar maxsus texnik bilimlar bilan bir qatorda musiqiy bilim, musiqa cholg'ularini yasash, ta'mirlash, sozlash, musiqa yozish va eshitish moslamalari bilan ishlashda kerak bo'ladigan bilim va ko'nikmalardan, musiqaviy spektakllar, konsertlar, teleko'rsatuv va radioeshittirishlar postanovkasi va rejissurasidan xabardor bo'lishi kerak. Zamonaviy musiqa san'ati texnikaga, yangi texnologiyalarga tobora ko'proq tayanib

bormoqda. Bu texnika bilan ham, ijodiy, ijrochilik, tinglovchilik faoliyati bilan ham bog‘lanib ketadigan mutlaqo boshqa bir psixologiyadir.

Funksional musiqa psixologiyasi. Amaliy maqsadda musiqadan foydalanishni funksional musiqa deb ataluvchi yo‘nalishda ko‘ramiz. Uning yordamida kundalik maishiy hayotga estetika baxsh etiladi, ayniqsa, ishlab chiqarish sohasida bu turdagi musiqa mehnat samaradorligini oshirish uchun mehnat jarayonining jadal sur‘atlarda olib borilishini ta‘minlaydi. Mehnat jarayonida musiqadan foydalanish ish kuni davomida asabiy-ruhiy holatlarning xususiyatlari bilan bog‘liq o‘z qonuniyatlariga ega. Bunda mehnat jarayoni uchun kerakli ritmni o‘rnatish, ish samaradorligini oshirish, ortib boradigan charchoqni chiqarish kabi ishlab chiqarish muammolarini hal etishga ko‘maklashuvchi musiqani tanlash katta ahamiyatga ega.

Musiqiy psixoterapiya psixologiyasi. Sog‘lomlashtirish maqsadida foydalaniladigan musiqa musiqiy psixoterapiyada o‘rganiladi. Buning uchun tinglash va ijod qilishga mo‘ljallangan musiqa tavsiya etiladi. Bizda musiqa psixologiyasining mazkur sohasi deyarli o‘rganilmagan, negaki u ham medisina, ham musiqa sohalari bo‘yicha jiddiy bilimga ega bo‘lishni taqozo etadi.

Biroq buyuk mutaffakir-olim Ibn Sino tadqiqotlarida bu sohadagi izlanishlarni ko‘rishimiz mumkin. Musiqaning inson salomatligi, emosional holatiga ta‘sir etish imkoniyati, musiqani tinglash va ijro etish jarayonidagi chuqur musiqiy kechinmalarning ijobiy ta‘siri - tibbiyotda ham, musiqada ham ilmiy izlanishlar olib borish uchun muhim asosdir.

Musiqachining diqqati turlicha: keng va tor, kech qoluvchi va ilgarilab ketuvchi bo‘lishi mumkin. Harakatlarning avtomatlashuvi diqqatning bir yerga jamlanishiga yordam beradi.

SEZGI

Biz o‘zimizni o‘rab turgan olamni sezgi organlarimiz va his qilish orqali bilamiz va kerakli axborotni olamiz.

Sezgi – narsa va hodisalarni sezgi a‘zolari orqali his qilishning oddiy psixik jarayonidir.

Eshitish sezgisi

Musiqa san‘atida eshitish sezgisi asosiy hisoblanadi. Musiqiy eshitish qobiliyati –musiqani to‘la-to‘kis qabul qila olish qobiliyatidir. Fiziologik jihatdan eshitish – bu eshitish organlari orqali tovush tebranishlarini qabul qilishdir. Tovushlar tashqi quloq orqali eshitish nervlari (3000 ta atrofida deb hisoblanadi, bitta oktavaga 300-400 ta to‘g‘ri keladi) vositasida o‘rta va ichki quloqdan o‘tib, bosh miyadagi eshitish analizatorlariga etib boradi. SHuningdek, analizatorlar ayrim musiqa cholg‘ularining chalinishi (skripka, al‘t, damli cholg‘ular), ff da ovoz chiqarish va odanning gapirishi va kuylashi jarayonida bosh miya suyagining tebranishi orqali ham ovoz qabul qiladi. Musiqiy eshitish qobiliyati quyidagi turlarga ega: mutlaq, nisbiy va ichki eshitish qobiliyati.

Mutlaq eshitish – musiqiy tovushlarning mutlaq baland-ligini etalonlari (masalan, kamerton) bilan solishtirmagan holda aniqlash qobiliyati. Lekin barcha buYuk musiqachilarda ham bunday qobiliyat bo‘lmagan. *Nisbiy yoki interval eshitish* – kuy, intervallar, akkordlardagi tovushlar o‘rtasidagi tovush balandligini sezish, aniqlash, ijro etish qobiliyatidir. Nisbiy eshitishda odam biror bir nota yoki akkordni aniqlashi yoki ijro etishi uchun hech bo‘lmasa bitta tovush haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi va undan boshqasini keltirib chiqarishi, topishi kerak. Ba’zan yaxshi nisbiy eshitishni soxta mutlaq eshitish deb ham atashadi. Odam o‘z ovozi yoki kamerton tovushining eng past yoki eng baland ovozini yodda tutadi va shunga tayanib, o‘zi eshitgan boshqa tovushlarni aniqlaydi.

Ichki eshitish – musiqaning butun tarkibiy qismini xayolan tasavvur qilish (notalarga qarab yoki xotira bo‘yicha) qobiliyati.

Psixologik tomondan musiqiy eshitish qobiliyati – musiqiy axborotning tashqi akustik ifodalanishining tahlili va sintezi, uning emosional bahosini ifodalab berishning o‘ziga xos mexanizmidir. Bu bilan bog‘liq tarzda ritm, lad, kuy, ko‘povozlik, tembrni his etish va boshqa eshitish turlari farq qilinadi.

Musiqiy eshitish qobiliyatining bu turi tarbiyasi bir vaqtning o‘zida ikki yoki undan ortiq ovozning musiqa to‘qimasidagi harakatini eshita olish qobiliyatiga bog‘liq. Mumtoz polifoniyani eshitish qobiliyati musiqachiga jamoaviy ijroda boshqa partiyalarni eshitishga yordam beradi. Masalan, u pianinochiga asosiy kuydan tashqari boshqa barcha faktura unsurlarini – bas harakati, jo‘rovozni, polifonik asarda esa nafaqat Yuqori ovozlar, balki qolgan barcha ovozlarni eshitish imkonini beradi. Garmoniyani his etish.

Garmoniyani eshitish qobiliyati - tovushlar muvofiqligiga (interval va akkordlarga) tayanuvchi musiqiy hisdir (B. Teplovga ko‘ra). Agar polifonik his va uning rivojlanishi musiqani gorizontal bo‘yicha eshitish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lsa, garmonik sezgi tovushlarni vertikal bo‘yicha eshita olish qobiliyatiga aloqador bo‘lib, pianinochilarda yaxshiroq rivojlanadi. Pianinochi asarning tub garmonik ma’nosiga qancha etib borsa, – deydi atoqli pianinochi Lev Oborin, – uning ijrosi shu qadar ruhiy chuqurlashadi. Bu so‘zlar boshqa barcha musiqa mutaxassislariga ham taalluqlidir.

Tembr-dinamikani his etish

Tembr – bu tovushlar bo‘yoqdorligi. Dinamika – tovush kuchi. Tovush dinamikasi, ya’ni uning jaranglash kuchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tembr bilan bog‘langan. Ijro bo‘yoqdorligiga musiqa cholg‘usining tembr imkoniyatlaridan foydalana olish hisobiga erishiladi. Ular esa, o‘z navbatida, musiqachi-ijrochining o‘z qo‘lida bo‘lgan kichik dinamik gradasiyalarga bog‘liq.

Musiqiy-eshitish tasavvuri

Musiqiy-eshitish tasavvuri – tovush past-balandligi harakatini eshitish va uni miyada gavdalantirish qobiliyatidir (B. Teplov). Ichki eshitish va musiqiy-eshitish tasavvuri

tushunchasi tashqi ovozlarga tayanmagan holda musiqani eshitish va boshdan kechirish qobiliyati bilan bog‘lanib ketadi. Bu qobiliyat musiqiy xotira va musiqiy tasavvur negizining asosini tashkil etadi. Metroritmikani his etish.

Metroritmikani his etish – musiqaning vaqtga bog‘liq xususiyatidir. U ijroda va tinglashda nafaqat eshitish, balki harakat tabiatiga ham egadir.

Metroritmika hissi turli uzunliklarning uzluksiz ketma-ketligi bilan bog‘liq. Ular go‘yo bir tekis ritmik harakatlarni nisbatan kichik impul’slar bilan to‘ldirib turadi.

Ritm hissi rivojlantirish juda qiyin bo‘lgan qobiliyatlardan biridir.

Harakat hissi Nozik, aniq, tez va epchil harakat qila olish ham Yuqori baholanuvchi qobiliyat hisoblanadi. Bu kuchli musiqiy eshitish qobiliyati, mustahkam musiqiy xotira va yaxshi ritm hissidir. Barcha cholg‘ularda ijro etish san’ati badiiy obraz va texnik mahorat bir butunligiga asoslanadi. Asarni ijro etishda texnik mukammallikka erishish, harakat jarayonlarini mustahkamlashning eng yaxshi usuli – asta-sekin, aniq chalishni mashq qilishdir.

IDROK

Idrok – narsalar yoki hodisalarning sezgi a’zolariga bevosita ta’siri orqali ongimizda etishidir. Psixologiyada idrok predmetlilik, yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik, anglangan bo‘lishi kabi o‘ziga xos jihatlarga ajratiladi.

Sezgida predmetning alohida qismlari, idrokda predmetning barcha tarkibiy qismlari bir butunlikda his qilinadi. Masalan, musiqiy asarni eshitib, biz uning kuyi, ritmi, tembri, garmoniyasini alohida qabul qilmaymiz, aksincha, bu musiqani obrazli, umumlashgan holda yaxlitligicha anglab, idrok etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. – 56 b.

Mirziyoev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ro'zasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48

Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 80

Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdaqi “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-son Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3261-sonli qarori. 2017 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi № PQ-3931-sonli qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 sentyabr kuni “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish» masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqi.